

TURIZMNING XALQARO IQTISODIY ALOQALARDAGI O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548114>

Rashidova Gulhayo Alisherovna

*Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti
Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 16/24-guruh talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rni, uning mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati, xalqaro investitsiyalar oqimi va milliy iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmni rivojlantirishga oid qarorlariga asoslanib, sohaning bugungi kundagi holati va istiqbollari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar

turizm, xalqaro iqtisodiy aloqalar, investitsiya, hamkorlik, milliy iqtisodiyot.

РОЛЬ ТУРИЗМА В МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ

Рашидова Гулхаё Алишеровна

*Международный институт пищевых технологий и инженерии
Направление «Туризм и гостеприимство», студентка группы 16/24*

Аннотация

В данной статье рассматривается роль туризма в международных экономических отношениях, его значение в развитии сотрудничества между странами, влияние на поток международных инвестиций и национальную экономику. Кроме того, на основе постановлений Президента Республики Узбекистан освещается современное состояние и перспективы отрасли.

Ключевые слова

туризм, международные экономические отношения, инвестиции, сотрудничество, национальная экономика.

THE ROLE OF TOURISM IN INTERNATIONAL ECONOMIC RELATIONS

Rashidova Gulhayo Alisherovna

International Institute of Food Technology and Engineering
Tourism and Hospitality major, Group 16/24

Abstract

This article analyzes the role of tourism in international economic relations, its importance in fostering cooperation between countries, the flow of international investments, and its impact on the national economy. Furthermore, based on the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, the current state and future prospects of the sector are scientifically discussed.

Keywords

tourism, international economic relations, investment, cooperation, national economy.

Kirish. Bugungi kunda turizm sohasining xalqaro iqtisodiy aloqalardagi oʻrni tobora ortib bormoqda. Turizm nafaqat mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi, balki xalqaro hamkorlikni kengaytirish, madaniy aloqalarni mustahkamlash va investitsiyalar oqimini jalb etishda ham muhim omil hisoblanadi¹. Xususan yangi Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2 dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan PF-5270-sonli Farmon (“Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”)² turizm sohasiga tub oʻzgarishlar olib keldi. Unda ichki va xalqaro turizmga oid davlat dasturlarini qabul qilish turizm infratuzilmasini rivojlantirish investitsiya muhitini yaxshilash vazifalari belgilandi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.07.2024 yildagi PF-102-son (“Oʻzbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”)³ Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasi (keyingi oʻrinlarda – Turizm qoʻmitasi) tomonidan roʻyxati shakllantiriladigan xalqaro turizm yarmarkalari va koʻrgazmalarida turizm sohasidagi tadbirkorlar, hunarmandlar, madaniyat va sanʼat vakillari ishtirok etadi. Bunda, 2025-yil 1-yanvardan boshlab, xalqaro turizm yarmarka va koʻrgazmalari uchun Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetidan 1 milliard soʻmdan kam boʻlmagan mablagʻlar ajratiladi faoliyat boshlaganiga 3 yildan koʻp boʻlmagan turoperatorlarning xalqaro turizm yarmarka va koʻrgazmalaridagi pavilyon ijarasi xarajatining 50 foizi Turizm qoʻmitasining

¹ Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.SH., Tursunova G.R. *Turizm asoslari*. – Fan va Texnologiya, 2014.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-son Farmoni, 2017-yil 2-dekabr.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-102-son Farmoni, 2024-yil 18-iyul.

budjetdan tashqari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) mablag'lari hisobidan qoplab beriladi; hunarmandlarning xalqaro turizm yarmarkalari va ko'rgazmalaridagi pavilyon ijarasi, ularda namoyish etiladigan mahsulotlarini tashish va aviachipta xarajatlarining 50 foizi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab beriladi. Mazkur qarorlar asosida mamlakatimizda turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rnini sezilarli darajada ortib, O'zbekistonni dunyo miqyosida jozibador turistik hududga aylantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston sharoitida esa so'nggi yillarda qabul qilingan davlat qarorlari va strategiyalar ham turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, yuqorida qayd etilgan Prezident qarorlari asosida xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi, xalqaro hamkorlik doirasi kengaydi va mamlakatimiz turizm bozori jahon miqyosida tanila boshladi. Turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rnini bugungi kunda juda keng qamrovli bo'lib, u milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda turizm yalpi ichki mahsulotning 8–12 foizini tashkil etadi⁴. Masalan, Ispaniya va Italiyada turizm davlat iqtisodiyotining asosiy drayveri hisoblanadi. Bu davlatlarda turizm sohasi xalqaro iqtisodiy hamkorlikning nafaqat moliyaviy, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ko'prigiga aylangan. O'zbekiston uchun ham turizm iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Mamlakatimizda turizm faoliyatiga mustaqillikning ilk kunlaridanoq asosiy davlat siyosati darajasida qaraladi. Turizm sohasi rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, bugungi kunda keng rivojlanayotgan sohaga aylanmoqda. Xususan, mamlakatimiz Markaziy Osiyodagi strategik hududda joylashgani, qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lgani bois xalqaro turizmni rivojlantirishda ulkan ustunliklarga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlar YUNESKOning butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu esa xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi⁵.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizm sohasida qabul qilinayotgan davlat qarorlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Masalan, viza tartib-tamoillarining soddalashtirilishi, elektron viza tizimining joriy etilishi va xalqaro sayyohlik yarmarkalarida faol ishtirok etilishi mamlakatimizga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirdi. Natijada, xalqaro iqtisodiy aloqalarda turizmning ulushi ortib, mamlakatning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada

⁴ World Travel & Tourism Council (WTTC) Global Report, 2024.

⁵ YUNESKO. Silk Road Heritage Sites List, 2024.

oshdi. Turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rnini O'zbekiston sharoitida ayniqsa so'nggi yillarda sezilarli darajada oshmoqda. Bu avvalo davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy va iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan qaror va farmonlari asosida turizm sohasi infratuzilmasiga katta e'tibor qaratildi.

Turizm sohasining xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rnini⁶

| № | Yo'nalish nomi | Asosiy mazmuni | Natijasi / Ta'siri |
|----------|---|---|---|
| 1 | Savdo va investitsiyalarni aytirish | Turizm xalqaro savdo masalalarini oshiradi. Turistlar transport, ovqatlanish, mehmonxona va madaniy joylardan foydalanib, xorijiy mamlakatlarga kirimini ta'minlaydi. | Xorijiy sarmoyalar jalbi, xalqaro iqtisodiy hamkorlik kuchayadi. |
| 2 | Mehnat bozorini kengaytirish | Turizm sohasi yangi ish olinadigan imkoniyatlarini yaratadi, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytiradi. | Ishsizlik kamayadi, daromadning daromadi ortadi, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik kuchayadi. |
| 3 | Moliyaviy oqimlarni jalb etish | Sayyohlar tashriflari orqali mamlakat bank tizimi orqali katta mablag'lar oqimida xorijiy valyuta kiradi. | Iqtisodiy barqarorlik kuchayadi, moliyaviy hamkorlik kuchayadi. |
| 4 | Transport va kommunikatsiya sohasini kengaytirish | Turizm transport tizimining infratuzilmasini yaxshilashni talab qiladi. Yangi aeroportlar, avtomobil yo'llari, daryo yo'llari quriladi. | Transport tarmoqlari rivojlanadi, logistika aloqalari kuchayadi. |
| 5 | Madaniy hamkorlik va imidj | Turizm milliy qadriyatlarini targ'ib qilishga tanitadi va mamlakatning imidjini kuchaytiradi. | Xalqaro madaniy hamkorlik kuchayadi, yangi madaniy hamkorlik loyihalari vujudga kelinadi. |

Xususan, yangi mehmonxonalar, zamonaviy yo'l va transport tizimlari, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengaytirilishi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda⁷. Bu orqali mamlakatimizga kirib kelayotgan xorijiy valyuta hajmi ko'paymoqda, davlat byudjetiga tushumlar ortmoqda. Turizm sohasi xalqaro iqtisodiy aloqalarda bir nechta strategik yo'nalishlarni shakllantirmoqda 1. Xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish. Turizm orqali mamlakatimiz dunyoning turli davlatlari bilan bevosita iqtisodiy aloqalar

⁶ Muallif ishlanmasi

⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023–2024-yillarda turizm infratuzilmasiga 1,2 mlrd AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb qilingan (*tourism.gov.uz*).

oʻrnatmoqda. Bu jarayon savdo, sarmoya, transport-logistika, madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2.Hududiy rivojlanish. Xalqaro turizmning rivojlanishi natijasida chekka hududlarda ham iqtisodiy faollik oshmoqda. Ayniqsa, Boysun, Termiz, Xiva, Qoʻqon kabi shaharlarda turizm orqali yangi ish oʻrinlari yaratilib, xalqaro aloqalar kengaymoqda.

3.Xorijiy kapitalni jalb qilish. Soʻnggi yillarda mehmonxona xoʻjaligi, transport tizimi, rekreatsion maskanlar barpo etilishiga xorijiy investorlar qiziqishi oshdi. Bu esa xalqaro iqtisodiy integratsiyaning bevosita natijasi hisoblanadi.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, turizm xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda bevosita iqtisodiy foyda bilan birga bilvosita samaralar ham beradi. Jumladan: mamlakatning xalqaro nufuzini oshiradi;milliy mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqishda marketing vositasi boʻlib xizmat qiladi; xalqaro ilmiy, madaniy va sport tadbirlarining oʻtkazilishiga sharoit yaratadi; mahalliy tadbirkorlarning xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada turizm sohasi Oʻzbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ushbu yoʻnalish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanishning ham muhim omiliga aylanib, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini jadallashtirmoqda Turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi roli nafaqat Oʻzbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham oʻrganilgan. Misol tariqasida Turkiya, Malayziya va Qozogʻistonni keltirish mumkin.

1. Turkiya:

Turkiya dunyoda eng koʻp turist qabul qiladigan davlatlardan biridir. 2022-yilda Turkiya turizm sohasidan 46,3 milliard dollar daromad olgan⁸. Bu daromadning katta qismi mehmonxona, transport, restoran va koʻngilochar xizmatlardan keladi. Shu bilan birga, Turkiya xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda ham turizmni strategik vosita sifatida ishlatadi. Turkiya tajribasi shuni koʻrsatadiki, turizm orqali nafaqat iqtisodiy daromad, balki mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalari kengayadi va sarmoya oqimi ortadi. Turkiya 2024-yilda dunyoning toʻrtinchi eng katta turizm bozori sifatida qayd etildi. 2025-yilning 1-yanvaridan 31-martigacha 8,844 million xalqaro sayyohni qabul qildi va turizmdan record darajadagi 9,5 milliard daromad oldi. Bu natija 1-chorakda eng yaxshi koʻrsatkich hisoblanadi. Ularning maqsadi 2025-yil oxirigacha 65 million sayyohni qabul qilish va turizmdan 64 milliard dollar daromad olish.

2. Malayziya:

⁸ *Turkey Tourism Statistics 2024*, Turkish Statistical Institute.

Malayziya turizmni iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida belgilagan. Xalqaro turistlar mamlakatga tashrif buyurganida, ularning sarf-xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri milliy iqtisodiyotga tushadi. Turizm sanoati pandemiyadan zarar ko'rgan bo'lsa-da, Malayziyada yanada mustahkam va barqaror kelajakni qurish tashabbuslari raqamlilashtirish, aqlli mahsulotlar va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan. Turizm Malayziyaning yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. 2022-yilga kelib Malayziyaga tashrif buyurgan sayyohlar soni 10,2 millionga yetib, Malayziya turizm sohasidan 28,3milliard dollar daromad olgan⁹, COVID-19 ning global sayyohlik sanoatiga ta'sirini hisobga olsak, 2023-yilda chet ellik sayyohlar kelishi tiklanib, 2025-yilda 24,3 million sayyohni tashkil etishi va 73 milliard daromad keltirishi kutilmoqda bu soha orqali minglab ish o'rinlari yaratilgan. Malayziya misoli shuni ko'rsatadiki, turizm sohasi xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita bo'ladi.

3. Qozog'iston:

Qozog'iston turizm sohasi orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni kuchaytirgan. Qozog'istonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari natijasida 2023-yakunlariga ko'ra 2,4 million sayyoh tashrif buyurgan bu 2022 yil hisobiga ko'ra 20% ko'pdir. Shu bilan birga, turizm sohasidagi rivojlanish xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ham yordam berdi.

4.O'zbekiston:

O'zbekiston so'nggi yillarda xalqaro turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2023-yilda mamlakatimizga 6,6 milliondan ortiq xorijiy turist tashrif buyurgan va bu turizm sohasidagi tushumni 6 milliard dollar atrofida oshirgan¹⁰. Agar Turkiya, Malayziya va Qozog'iston tajribasini inobatga oladigan bo'lsak, O'zbekistonning turizm sohasidagi salohiyati yuqori bo'lib, xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkoniyatlari katta.Shuningdek, O'zbekistonda turizm orqali yaratilgan ish o'rinlari soni ortib bormoqda. Mehmonxona, transport, gastronomiya va ko'ngilochar xizmatlarda minglab yangi ish o'rinlari ochilmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy foyda, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va investitsiya oqimini jalb qilishga xizmat qiladi.Natijada, O'zbekiston turizm sohasi orqali xalqaro iqtisodiy aloqalarda o'z o'rnini mustahkamlab, iqtisodiy integratsiyani jadallashtirishda muhim vositaga aylanmoqda. Turizm sohasi investitsiyalarni jalb qilish, ish o'rinlarini yaratish, valyuta tushumlarini oshirish va xalqaro imidjni mustahkamlash kabi bir nechta strategik vazifalarni bajaradi. Turizmning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rni nafaqat iqtisodiy foyda

⁹ Tourism Malaysia Annual Report 2023.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hisobotlari, 2024.

¹¹ <https://daryo.uz>

bilan o'lchanadi, balki u mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi, investitsion jozibadorligi va ijtimoiy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizm sohasini rivojlantirish orqali mamlakat:

1.Xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi va milliy iqtisodiyotga qo'shimcha daromad keltiradi Ish o'rinlarini yaratadi va mehnat bozorini rivojlantiradi;

2.Xalqaro hamkorlikni kengaytiradi, madaniy va ilmiy almashinuvlarni rag'batlantiradi.

3.Xalqaro miqyosda ijobiy imidj yaratadi va turistlarni jalb qiladi.

Shuningdek, Turkiya, Malayziya va Qozog'iston tajribasi O'zbekiston uchun o'rnak bo'lib, sohani yanada rivojlantirish yo'llarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning strategik joylashuvi, boy tarixiy merosi va zamonaviy infratuzilmasi mamlakatni xalqaro turizm bozori uchun jozibador qiladi.Umuman olganda, turizm sohasi xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi va mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.SH.Safarov, G.R.Tursunova Turizm asoslari. Fan va Texnologiya, Nashriyoti.2014

2. Ibragimov, A. (2021). Turizm va global iqtisodiyot. Toshkent: O'zbekistoniqtisodiyoti va turizm nashriyoti.

3.Mavlonov, F. (2020). Turizm va iqtisodiy o'sish: Ta'sir va imkoniyatlar. Toshkent:Turizm va iqtisodiy o'sish.

4.Rasulov, M. (2019). Turizm va uning ijtimoiy ta'siri. Toshkent: O'zbekistoniqtisodiyoti.

5.<https://xabar.uz/hxw1>

6. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/journal>

7. <https://daryo.uz>